

**NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV O'QUV MUHITINI
LOYIHALASH MASALALARI**

Saydaliyeva Maxbubaxon Murodjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Magistratura bo'limi

“Pedagogika va psixologiya” kafedra Pedagogika yo'nalishi 1-kurs magistranti.

bsureyya77@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19053865>

Annotatsiya. Mazkur maqolada nogironligi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv o'quv muhitini loyihalash masalalari tahlil qilindi. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi. Shu bois, soha rivojlanishidagi sabablar o'rganib chiqildi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar, UNESCO, ta'lim to'g'risidagi qonun, 20 – modda, korreksion pedagogik ta'lim.

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar bolalarning ta'lim va tarbiyasiga bo'lgan qarashlarning o'zgarishiga, bu esa mamlakatimiz ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Umumiy va maxsus ta'limning integratsiya jarayonlarida tendensiyalar mavjud bo'lib, buning natijasida nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalash muammosi asosiylardan hisoblanadi.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga erta tashxis qo'yish va ularga yordam ko'rsatish davlat tizimi ilmiy o'rganish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, turli yosh guruhlari va toifalaridagi bolalarga, ularning yaqin atrofiga, shuningdek, ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga psixologik, tibbiy va pedagogik yordam va qo'llab quvvatlash zarur.

O'zbekiston Respublikasida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar tahlili va dastlabki baholash ishlari 2000 - yillardan avval boshlangan. Aynan 1996-yil noyabr oyida UNESCO Ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda “Maxsus ta'lim sohasida inklyuziv usullar”, mavzusida milliy o'quv dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Hozirgi kunga kelib jamiyatimizda alohida ehtiyojli bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi uchun qulay imkoniyatlar yaratishga qaratilgan o'zgarishlar ro'y bermoqda. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi qonunga alohida modda kiritilishi va ushbu modda inklyuziv ta'limga bag'ishlanganligi yaqqol misol bo'la oladi.

“Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi¹”(20-modda).

¹ O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni.

Ushbu qonundagi o'zgarish asosida inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun pedagogik-psixologik va ijtimoiy rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchilar uchun pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilgan.

ASOSIY QISM

Inklyuziv - inglizcha so'z bo'lib, inklusif- qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi.

Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.

Inklyuziv ta'lim - bu barcha o'quvchilar, shu jumladan, turli xil ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratish va birgalikda ta'lim olishni ta'minlovchi ta'lim tizimidir². Bu ta'lim modeli jismoniy, aqliy, ijtimoiy yoki hissiy cheklovlar, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy holatga bog'liq bo'lmagan holda barcha bolalarning ta'lim olish huquqini e'tirof etadi va hurmat qiladi.

Shuningdek, inkluziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim zamonaviy pedagogikaning markazida bo'lib, turli kelib chiqishi yoki qobiliyatlaridan qat'iy nazar, barcha o'quvchilar uchun teng huquqli ta'im imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan.

Inkluziv ta'limning afzalliklari:

1. Ijtimoiy tenglikni ta'minlash– turli ehtiyojlarga ega bolalar bir xil sharoitda ta'lim oladi.
2. Tolerantlikni rivojlantirish– o'quvchilar bir-birlarini hurmat qilishni va tushunishni o'rganadilar.

3. Shaxsiy rivojlanish– bolalar o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishlari uchun imkoniyatlar yaratiladi.

4. Oilaviy qo'llab-quvvatlash– ota-onalar bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi.

Inklyuziv ta'limning funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

2. Jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

3. Ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

4. Barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga bolalar qabul qilinadi: eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar, somatik kasalliklar, nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar, tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan

² Педагогик атамалар луғати.— Т.: “Фан”, 2008.—Б.47

bolalar, aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar, aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar, intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar, hulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar³.

Inklyuziv ta'lim tizimi - nogironligi bo'lgan bolalarga yaqin hudud atrofida joylashgan har qanday maktablarda ta'lim olishi, o'zlashtirish qiyinlik qilsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi doirasida tashkil etiladi.

Ushbu maxsus maktablarda inklyuziv sinfdagi alohida ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni alohida hisobga olgan holda tibbiyot xodimi tomonidan o'quvchilarga maxsus tibbiy yordam ko'rsatiladi. Tibbiy xodimlar o'quvchilarning jismoniy-ruhiy holatini tekshiradi, zarurat bo'lganda davolash muolajasini olib boradi.

Korreksion pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'lig'ini nazorat qiladi hamda aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi, o'quvchining salomatligi to'g'risida ota onalariga maslahat beradi va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ularni sog'lomlashtirish ishlarini olib boradi.

Bunday ta'lim tizimida barcha bolalarga asosiy ta'lim olishida teng imkoniyatlar beriladi.

Shu bilan birga nuqsonli bolalarga qulayliklar yaratish, bola ehtiyojlari e'tiborga olinadi.

Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oila muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'lim jarayonida ota onalar bilan hamkorlikda ishlash lozim.

Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli bolalarning ota onalariga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lishi huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak.

Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron bolalar, nuqsonlarini bartaraf etish, korrektsiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel olib borish talab etiladi⁴.

XULOSA

Inklyuziv ta'limni rivojlanishiga quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatib kelayapti: pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi hamda kasbiy malaka darajasi inklyuziv ta'lim uchun yetarli emasligi, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmaganligi, umumta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari inklyuziv ta'lim haqida yetarli ma'lumotlarga ega emasligi, umumta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim berish metodikasi ishlab chiqilmaganligi va albatta nogironligi bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari zarur maxsus o'quv adabiyotlari va metodik-qo'llanmalar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi.

Xulosa qilib aytganda, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'zlarini erkin his qilgan holda ta'lim olishlari uchun shart – sharoitlar yaratib berish har birimizning vazifamizdir. Buning uchun albatta yuqorida keltirilgan sabablarga yechim topishimiz zarur.

³ “Inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish” nomli metodik tavsiya – Toshkent 2022.

⁴ www.in-academy. INKLYUZIV TA'LIM - TENG IMKONIYATLAR POYDEVORIDIR.

Shu bilan birga, inklyuziv ta'limga malakali kadrlar tayyorlash uchun ta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limi bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etish hamda ularning faoliyatiga inklyuziv ta'lim bo'yicha zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni
2. Педагогик атамалар луғати.– Т.: "Фан", 2008.–Б.47
3. "Inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish" nomli metodik tavsiya – Toshkent 2022.
4. www.in-academy. INKLYUZIV TA'LIM - TENG IMKONIYATLAR POYDEVORIDIR.